

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQARISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibaevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARINING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O‘ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G‘ulomiddinova	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO‘ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O‘RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ .320	
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH339	
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH346	
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI351	
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI359	
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH367	
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH376	
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI383	
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR392	
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH400	
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА407	
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOIIY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI414	
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI423	
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР427	
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ433	
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI440	
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI448	
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI458	
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLAster TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланиязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIQNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

INNOVATSION MENEJMENT TAMOYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shadieva Madina Djaloliddin qizi

Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti,
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion menejment tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy sanoat korxonalari innovatsion menejment orqali raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu maqolada innovatsion menejment tamoyillarining O'zbekiston sanoat korxonalarida qo'llanilishi, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsion menejment, boshqaruv samaradorligi, sanoat korxonalari, raqobatbardoshlik, optimallashtirish, moliyaviy resurslar, ilmiy-tadqiqot, texnologik yangilanish.

Аннотация

Принципы инновационного менеджмента играют важную роль в повышении эффективности управления предприятиями. Современные промышленные предприятия могут повысить конкурентоспособность, оптимизировать производственные процессы и эффективно использовать финансовые ресурсы благодаря инновационному менеджменту. В данной статье анализируется применение принципов инновационного менеджмента в промышленных предприятиях Узбекистана, существующие проблемы и их решения.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, эффективность управления, промышленные предприятия, конкурентоспособность, оптимизация, финансовые ресурсы, научные исследования, технологическое обновление.

Abstract

The principles of innovation management play a crucial role in enhancing the efficiency of enterprise management. Modern industrial enterprises can increase their competitiveness, optimize production processes, and utilize financial resources efficiently through innovation management. This article analyzes the application of innovation management principles in Uzbekistan's industrial enterprises, existing challenges, and their solutions.

Keywords: innovation management, management efficiency, industrial enterprises, competitiveness, optimization, financial resources, research and development, technological innovation.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun innovatsiyalarni joriy etishga tobora ko'proq e'tibor

qaratmoqda. Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va bozor talablarining tez o'zgarishi korxonalardan yangi boshqaruv usullarini qo'llashni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion menejment korxonalar uchun samarali boshqaruv tizimini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion menejment – bu korxonada yangi mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar va biznes jarayonlarini yaratish va rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv tizimi bo'lib, u korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda strategik rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, risklarni boshqarish va xodimlarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash asosiy ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarning boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion menejment tamoyillarini qo'llash muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyillar moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik, ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratish, texnologik rivojlanish va ochiq innovatsiyalarni joriy etish kabi omillarni o'z ichiga oladi. Innovatsion menejment orqali korxonalar bozordagi o'zgarishlarga tez javob berish, ichki jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu ishda korxonalarning boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion menejment tamoyillari tahlil qilinadi va ushbu tamoyillarning korxona rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, samarali innovatsion boshqaruvni joriy etish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion menejment tamoyillari korxonalarning samaradorligini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash va barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'limda mahalliy va xorijiy olimlarning ushbu mavzu bo'yicha olib borgan tadqiqotlari va adabiyotlari tahlil qilinadi.

Xorijiy tadqiqotlarda innovatsion menejment korxona rivojlanishining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Quyida soha bo'yicha asosiy adabiyotlar keltirilgan: Innovatsion menejment nazariyasi va strategiyasi Schumpeter, J. A. (1934).

The Theory of Economic Development. Ushbu asarda iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalar orqali amalga oshishi tushuntirilgan. Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqadi. Drucker, P. (1985). *Innovation and Entrepreneurship*. Drucker innovatsiyalar va tadbirkorlikning korxonalar samaradorligiga ta'siri haqida fikr yuritadi. Unga ko'ra, innovatsiyalar doimiy ravishda yangilanib boradigan jarayon bo'lib, tashkilotning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalar va raqobatbardoshlik Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Ushbu asarda innovatsiyalar milliy va xalqaro miqyosda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida tahlil qilingan. Christensen, C. M. (1997). *The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail*. Ushbu tadqiqot disruptiv (buzuvchi) innovatsiyalar tushunchasini ilgari surib, korxonalarga yangi texnologiyalarni qabul qilish strategiyalarini ishlab chiqishni tavsiya qiladi. Tidd, J., Bessant, J., & Pavitt, K. (2005). *Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change*. Bu kitob innovatsion menejment tamoyillarini, texnologik o'zgarishlarni, bozor talablariga moslashish va tashkilotlar tuzilishidagi o'zgarishlarni o'z ichiga

oladi. Raqamli transformatsiya va innovatsiyalar Pisano, G. P. (2019). *Creative Construction: The DNA of Sustained Innovation*. Pisano innovatsion menejmentni uzoq muddatli muvaffaqiyat omili sifatida tahlil qilib, kompaniyalarga barqaror innovatsiya strategiyalarini ishlab chiqishni tavsiya etadi. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarning menejmentga ta'sirini tahlil qiladi. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). *Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation*. Raqamli transformatsiyaning korxonalar innovatsion menejment tamoyillariga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida innovatsion menejment bo'yicha bir qator olimlar tadqiqot olib borgan. Ularning ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion menejment Abdullayev, M. (2019). *Innovatsion menejment va iqtisodiy rivojlanish*. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sanoati va xizmat ko'rsatish sektorida innovatsiyalarni joriy etishning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Rasulov, B. (2021). *Raqamli iqtisodiyot va innovatsion menejment tamoyillari*. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning menejmentga ta'siri o'rganilgan. To'rayev, X. (2020). *Korxonalarda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish*. Mahalliy korxonalarda innovatsion strategiyalarni joriy etish va samaradorligini baholash usullari keltirilgan. Makhmudov, N. (2022). *Korxonalarning innovatsion rivojlanish modellari*. Innovatsion menejmentning turli modellari va ularning O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, innovatsion menejment korxonalarning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy tadqiqotlar innovatsiyalarni joriy etish strategiyalarini tahlil qilsa, mahalliy olimlar O'zbekiston sharoitida bu tamoyillarning qo'llanilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Kelajakda innovatsion menejmentni rivojlantirish uchun xalqaro tajriba va mahalliy sharoitga mos keladigan strategiyalarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar uchun samaradorlik va raqobatbardoshlik asosiy omillardan biri hisoblanadi. Innovatsion menejment tamoyillarini joriy etish orqali korxonalar o'z faoliyatini optimallashtirishi, xarajatlarni kamaytirishi va bozor talablariga tezkor moslashishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi — innovatsion menejmentning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Innovatsion menejment korxonada innovatsion jarayonlarni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan boshqaruv tamoyillari va uslublari tizimidir (Schumpeter, 1934). Innovatsiyalar texnologik, tashkiliy, marketing va jarayon innovatsiyalariga bo'linadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion menejmentning asosiy tamoyillariga texnologik modernizatsiya, yangi texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlarini joriy etish, ijodiy muhit yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish uchun kreativlikni rag‘batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish, bozor talablariga mos ravishda mahsulot va xizmatlarni yangilash, xodimlarning innovatsion fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, malaka oshirish va yangi bilimlarni egallashni rag‘batlantirish kabi omillar kiradi.

Innovatsion menejment korxonalar uchun ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va sifatni yaxshilash, yangi bozorlarni egallash va mijozlar bazasini kengaytirish kabi ustunliklarni beradi.

Xorijiy kompaniyalar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion menejment strategiyasini qo‘llagan kompaniyalar daromadlarini sezilarli darajada oshirishga erishgan. Quyidagi jadvalda innovatsion menejmentni joriy etgan kompaniyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari solishtiriladi (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion menejment tamoyillarining samaradorlikka ta’siri ¹

Kompaniya	Innovatsion menejment Strategiyasi	Samaradorlik oshishi (%)
Tesla	Yangi texnologiyalar va avtomatlashtirish	35%
Google	Kreativ muhit va tashkiliy innovatsiyalar	42%
Samsung	R&D va mahsulot diversifikatsiyasi	30%
O‘zbekiston korxonalari (o‘rtacha)	Raqamli transformatsiya	25%

- Mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda innovatsion menejmentdan foydalanish darajasi xorijiy kompaniyalarga nisbatan pastroq bo‘lsa-da, ushbu tamoyillarning qo‘llanilishi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sanoati jadal rivojlanib borayotgan sharoitda innovatsion menejment tamoyillarini qo‘llash korxonalar uchun bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi:

- Innovatsion menejment korxonalarga yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Zamonaviy ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini qo‘llash natijasida korxonalar xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin.

- Innovatsion menejment tamoyillari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu esa ishchi kuchidan samarali foydalanish va mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

- Yangi texnologiyalarni joriy qilish va innovatsion menejment usullaridan

¹ Muallif ishlanmasi

foydalanish orqali ortiqcha xarajatlarni kamaytirish mumkin. Masalan, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish jarayonidagi energiyani sarfini qisqartirishga imkon beradi.

- Innovatsion menejment tizimi korxonalarga sifat menejmenti tizimini joriy etish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga ko'maklashadi. Bu esa iste'molchilarning ishonchini qozonish va bozordagi mavqeyini mustahkamlashga yordam beradi.

Sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni qo'llash orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va patentlar olish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, O'zbekiston sanoat korxonalarining ilmiy muassasalar bilan hamkorligini kuchaytirish va innovatsion klasterlarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro talab va standartlarga javob berishi natijasida O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksport hajmi oshishi va yangi tashqi bozorlarni egallash imkoniyati paydo bo'ladi. Innovatsion menejment tamoyillarini qo'llash natijasida korxonalarda kadrlarni uzluksiz o'qitish, malakasini oshirish va yangicha fikrlash madaniyatini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Yangi texnologiyalar va menejment usullarini egallagan mutaxassislar korxonalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion menejment sanoat korxonalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish imkonini beradi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi. O'zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion menejment tamoyillarini joriy etish jarayonida turli muammolar yuzaga kelmoqda. Biroq, ushbu muammolarni hal qilish uchun aniq strategiyalar va yechimlar mavjud. Quyida asosiy muammolar va ularning yechimlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Innovatsion menejment tamoyillarining O'zbekiston sanoat korxonalarida qo'llash: muammo va yechimlar¹

Muammo	Yechim
Moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi	Davlat va xususiy sektor tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish
Innovatsion texnologiyalar bo'yicha bilim va tajribaning kamligi	Kadrlarni innovatsion menejment bo'yicha o'qitish va tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish
Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning sustligi	Ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion tadqiqotlarga grantlar ajratish
Raqobatbardoshlik darajasining pastligi	Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash

¹ Maullif ishlanmasi

Muammo	Yechim
Ishlab chiqarish jarayonlarining eskirganligi	Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va avtomatlashtirish darajasini oshirish
Kichik va o'rta korxonalar uchun innovatsion imkoniyatlarning cheklanganligi	Davlat tomonidan kichik va o'rta korxonalar uchun innovatsion grantlar va imtiyozlar berish
Kadrlar salohiyatining yetishmovchiligi	Innovatsion menejment bo'yicha maxsus treninglar va ta'lim dasturlarini rivojlantirish
Ekologik barqarorlikka yetarlicha e'tibor berilmasligi	Yashil iqtisodiyot va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish bo'yicha rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish

Innovatsion menejment tamoyillarini O'zbekiston sanoat korxonalarida samarali qo'llash uchun quyidagi muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur: Moliyaviy qo'llab-quvvatlash – davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish. Kadrlarni rivojlantirish – mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat o'rtasida innovatsion hamkorlikni kengaytirish. Ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish – innovatsion klasterlarni rivojlantirish va mahalliy ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish. Yangi texnologiyalarni joriy etish – sanoat korxonalarida avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya va ekologik toza texnologiyalarga o'tishni jadallashtirish.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan strategiyalar innovatsion rivojlanishning asosiy omillari hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion menejment tamoyillarini O'zbekiston sanoat korxonalarida qo'llash natijasida raqobatbardoshlik oshadi, ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, xarajatlar kamayadi va ekologik muammolar hal etiladi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlari rivojlanib, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va xalqaro bozordagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sanoat korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion menejment tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion menejment: zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, boshqaruv tizimini optimallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion menejmentning boshqaruv samaradorligiga ta'siri quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

Strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish;
 Raqobatbardoshlikni oshirish va bozor talablariga moslashuvchanlikni ta'minlash;
 Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish orqali iste'molchilar ishonchini mustahkamlash;

Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va texnologik yangilanishi;
 Kadrlar malakasini oshirish va innovatsion muhitni shakllantirish;

Ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash. Innovatsion menejment tamoyillarini sanoat korxonalarida samarali joriy etish natijasida: Boshqaruv tizimi takomillashadi, Ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, Korxonaning uzoq muddatli rivojlanishi uchun zamin yaratiladi.

Innovatsion yondashuvlar orqali korxonalar ichki va tashqi muammolarni samarali hal qilib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Shu sababli, innovatsion menejment tamoyillarining amaliyotga tatbiq etilishi har qanday korxonaning strategik rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development.
2. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship.
3. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations.
4. Tidd, J., Bessant, J., & Pavitt, K. (2005). *Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change*.
5. Christensen, C. M. (1997). The Innovator's *Dilemma*.
6. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review Press, Boston, MA.
7. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Transaction Publishers, New Brunswick, NJ.
8. Dessler, G. (2020). Human Resource Management. Pearson Education, London.
9. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management*. Pearson Education, Boston, MA.
10. Tairova, M. M., Narzullayeva, G. S., Odinayeva, N. F. Foreign Experience in Ensuring High Competitiveness of Economists in Higher Education. – 2021.
11. Gulchehra, N. The Importance of Sustainable and Educational Tourism in the International Pandemic Period (on the Example of UWTO and Uzbekistan). // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
12. Narzullayeva, G. Theoretical and Methodological Basis of Attracting Foreign Investment to the National Economy. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 2540-2544.
13. Gulchehra, N. Reforms in New Uzbekistan: Their Economic and Financial Significance. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 33. – №. 33.
14. Narzullayeva, G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector. // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.
15. Gulchehra, N. Trends and Prospective Directions of Global Economic Development. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
16. Narzullayeva, G. Foreign Experience in Ensuring High Competitiveness of Economists in Higher Education. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

17. Narzullayeva, G. S., Bakayeva, M. A. Creative Management: Creative Opportunities in Business Process Management. // American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 58-63.
18. Giyasova, N. B., Davlatov, S. S., Narzullayeva, G. S. Role of *Marketing Strategies* in Increasing Company Competitiveness. // International Journal of Academic Management Science Research. – 2021. – Т. 5. – №. 3. – С. 99-102.
19. Tairova, M. M., Giyazova, N. B., Dustova, A. K. Goal and Objectives of Integrated *Marketing Communications*. // Economics. – 2020. – Т. 2. – С. 5-7.
20. Ahrorovna, B. M. Management and Implementation of Technological Innovations in *Industrial Enterprises* of Our Country. // Innovative Achievements in Science 2024. – 2024. – Т. 3. – №. 34. – С. 18-22.
21. Bakayeva, M. The Role of Islamic Finance in the Capital Market in Uzbekistan. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2022. – Т. 11. – №. 11.
22. Khodjaeva, D. Directions of Using *Marketing Sector* in Producing Innovative Products. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
23. Khodjaeva, D. Characteristics of Increasing the Efficiency of Light *Industrial Enterprises* in the Conditions of Innovative Development. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
24. Khodjaeva, D. The Potential of the Tourism Sphere in the Development of an Environmentally Developed Society. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
25. Jurayeva, Z. Economic Efficiency of Attraction and Use of Investments in Uzbekistan. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20.
26. Jurayeva, Z. Innovative Ways to Invest in Human Capital Investments. // Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**